Aortokoronar shuntlash (AKSh) koronar arteriyalarning ko‘p tomirli zararlanishida miokard revaskulyarizatsiyasining eng samarali usullaridan biri bo‘lib, uzoq muddatli omon qolish va hayot sifatini yaxshilashi bilan ajralib turadi [1]. Shunga qaramasdan, operatsiyadan keyingi bo‘lmachalar fibrillyatsiyasi (POBF) kardiojarrohlikning eng ko‘p uchraydigan asoratlaridan biri bo‘lib qolmoqda va AKShdan keyin 20–40% bemorlarda kuzatiladi [2,3]. So‘nggi yillarda POBFga nisbatan qarashlar sezilarli darajada o‘zgardi. Agar ilgari ushbu aritmiya operatsion travmaning vaqtinchalik oqibati sifatida baholangan bo‘lsa, hozirgi kunda u bemorda avvaldan mavjud bo‘lgan yashirin atrial substratning klinik namoyon bo‘lishi sifatida qaralmoqda [4]. Bunday yondashuvga ko‘ra, kardiojarrohlik aritmiyani yuzaga keltiruvchi sabab emas, balki mavjud atrial kardiomiopatiyaning manifestatsiyasiga turtki beruvchi omil hisoblanadi [5]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, POBF rivojlanishi bemorning yoshi, chap bo‘lmacha hajmi, qandli diabet, surunkali buyrak yetishmovchiligi, yurak yetishmovchiligi va yallig‘lanish faolligi bilan bog‘liq [6,7]. Mathew va hammualliflar tomonidan ishlab chiqilgan ko‘p markazli risk-indeksda yosh, surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi va oldingi yurak ritmi buzilishlari POBFning mustaqil prediktorlari sifatida aniqlangan [6]. Echahidi va hammualliflar esa yallig‘lanish va oksidlovchi stress mexanizmlarining muhim rol o‘ynashini ko‘rsatganlar [7]. POBF nafaqat erta operatsiyadan keyingi davrga, balki uzoq muddatli natijalarga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Benedetto va hammualliflar tomonidan o‘tkazilgan kuzatuv tadqiqotida POBF insult rivojlanishi xavfini sezilarli darajada oshirishi aniqlangan [8]. Taha va hammualliflar esa AKShdan keyin yangi paydo bo‘lgan bo‘lmachalar fibrillyatsiyasi uzoq muddatli o‘lim va yurak-qon tomir asoratlari xavfi bilan bog‘liqligini ko‘rsatganlar [9]. POBF patogenezining muhim bo‘g‘inlaridan biri operatsiyadan keyingi perikardial suyuqlik to‘planishi hisoblanadi. Perikardial effuziya bo‘lmachalar devoriga mexanik ta’sir ko‘rsatishi, mahalliy yallig‘lanish jarayonlarini kuchaytirishi va elektr remodellashtirishni rag‘batlantirishi mumkin [10]. Shu sababli perikardial suyuqlikning drenajlanishini yaxshilashga qaratilgan jarrohlik usullari POBF profilaktikasining istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Posterior perikardiotomiya perikard bo‘shlig‘ini chap plevra bo‘shlig‘i bilan bog‘lash orqali perikardial suyuqlik to‘planishining oldini oluvchi oddiy va xavfsiz jarrohlik usulidir [11]. Mulay va hammualliflar ushbu usulning perikardial tamponada va effuziya rivojlanishini kamaytirishini birinchi bo‘lib ko‘rsatganlar [10]. Keyinchalik Gaudino va hammualliflar tomonidan o‘tkazilgan PALACS randomizatsiyalangan tadqiqotida posterior perikardiotomiya qo‘llanilgan bemorlarda POBF chastotasi 17% ni tashkil etgan bo‘lsa, nazorat guruhida ushbu ko‘rsatkich 32% ga yetgan [11]. Biancari va hammualliflar tomonidan o‘tkazilgan metaanaliz natijalari ham posterior perikardiotomiya POBF rivojlanish xavfini sezilarli darajada kamaytirishini tasdiqlagan [12]. Shunga qaramay, posterior perikardiotomiyaning profilaktik samaradorligi barcha bemorlarda bir xil emasligi taxmin qilinmoqda. Shu sababli POBF rivojlanishining klinik, instrumental va laborator prediktorlarini aniqlash hamda posterior perikardiotomiyaning aynan yuqori xavf guruhlaridagi samaradorligini baholash zamonaviy kardiojarrohlikning dolzarb ilmiy muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Material va usullar.

Aortokoronar shuntlash amaliyotidan keyin postoperatsion bo‘lmachalar fibrillyatsiyasi rivojlanishining prediktorlari va posterior perikardiotomiyaning profilaktik ahamiyani aniqlashga qaratilgan tadqiqot Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida o`tkazilgan. Tadqiqot 2023 yildan 2025 yilgachan davom etgan va xozirda yakunlangan. Yakka markazli prospektiv tadqiqot 246 bemorning klinik tekshiruvlarini o`z ichiga olgan tadqiqotda qatnashgan bemorlarning o`rtacha yoshi 64,7±6,1, erkak va ayollarning nisbati 22.4%(n=55) ga 77.6%(n=191) ni tashkil etgan. Bemorlar ko`r ko`rona randomizatsiya usuli yordamida posterior perikardiotomiya usuli qo`llanilishiga qarab 2 guruhga ajratilgan: 1-guruhdagi 123 bemorga PPT qo`llanilgan, 2- guruhdagi 123 bemorga PPT amaliyoti bajarilmagan. Tadqiqotga kiritish mezonlari: yurak ishemik kasalligi mavjud va aortakoronar shuntlash amaliyotiga ko`rsatmasi bo`lgan, Yoshi 18 dan katta bo`lgan, kasallik tarixida bo`lmachalar fibrillyatsiyasining xar qanday turi qayd etilmagan va tadqiqotda qatnashishga yozma rozilkka imzo chekkan bemorlar. Tadqiqotdan chiqarish mezonlari: kasallik tarixida bo`lmachalar fibrillyatsiyasining xar qanday turi qayd etilgan, yoki

jarrohlik amaliyotidan oldingi davrda EKG xolter monitoringida BF aniqlangan, Yoshi 80 dan katta, o`tkir miokard infarkti o`tkazgan, mini invaziv revaskulyarizatsiya usuli qo`llanilgan va tadqiqotda qatnashishdan bosh tortgan bemorlar, Tadqiqotda qo`llanilgan laborator va instrumental tekshikuvlar quyidagilarni o`z ichiga olgan: ko`krak qafasi rentgenografiyasi, bosh va ko`krak qafasining MSKT tekshiruvi, KAG(koronarografiya), EKG xolter monitoring, exokardiografiya, operatsiya ichi floumetriyasi va laborator tekshiruvlar uchun qon namunasi olindi: umumiy qon tahlili, koagulogramma, yallig‘lanish markerlari, biokimyoviy qon tahlillari, NT-proBNP darajasi va elektrolitlar ko‘rsatkichlari aniqlandi. Tadqiqot protokoliga asosan o`rganilayotgan bemorlar jarrohlik amaliyotidan keyingi 30 kun ichidagi ko`rsatkichlari o`rganildi va tahlil qilindi.

Natijalar.

O`tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari quyidagi yo`sinda ifodalangan: dastlabki bosqichda jarrohlik amaliyotigachan va jarrohlik amaliyotidan keyingi davrda o`rganilayotgan bemorlarning klinik va anamnestik xususiyatlari tahlil qilingan va posterior perikardiotomiyaning jarrohlik amaliyotidan keyingi rivojlanuvchi bo`lmachalar fibrillyatsiyasiga ta`siri tahlil qilingan. Keyingi bosqichda esa postoperatsion bo`lmachalar fibrillyatsiyaning prediktorlari aniqlangan va ular sinchiklab tahlil qilingan va postoperatsion bo`lmachalar fibrillyatsiyaning erta jarrohlikdan keyingi darga ta`siri tahlil qilingan.

Dastlabki bosqichda tadqiqot protokoliga muvofiq PPT qilingan va PPT qilinmagan bemorlar o`rtasida klinik va anamnestik ko`rsatkichlari solishtirildi (jadval 1).

Jadval 1.

Tadqiqotga kiritilgan bemorlar guruhlarining klinik-anamnestik ma’lumotlari

Ko‘rsatkichlar	Asosiy guruh (PPT bilan) n=123	Nazorat guruhi (PPTsiz) n=123	Ishonchlilik p; OR (95% CI)
Yosh	64,4±7,2	65±4,8	p=0,94
Jins (erkak/ayol)	78,9% (n=97) / 21,1% (n=26)	76,4% (n=94) / 23,6% (n=29)	p>0,05
Tana vazni indeksi (TVI), kg/m²	28,85±4,06	29,03±3,85	p=0,97
Arterial gipertenziya	53,6% (n=66)	56,9% (n=70)	p>0,05; OR=0,847 CI:[0,513–1,397]
Postinfarkt kardioskleroz	32,5% (n=40)	39,8% (n=49)	p>0,05; OR=0,708 CI:[0,420–1,195]
Semizlik	32,5% (n=40)	34,1% (n=42)	p>0,05; OR=0,941 CI: [0,553–1,600]
Qandli diabet	36,5% (n=45)	39,0% (n=48)	p>0,05; OR=0,901 CI: [0,538–1,501]
Surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi	40,6% (n=50)	43,9% (n=54)	p>0,05; OR=0,875 CI: [0,528–1,452]
Surunkali buyrak kasalligi	79,7% (n=98)	83,0% (n=102)	p>0,05; OR=0,807 CI: [0,424–1,535]
Anamnezida O`MQAB	17,0% (n=21)	18,7% (n=23)	p>0,05; OR=0,895 CI: [0,466–1,719]
Avvalgi revaskulyarizatsiya(stentlash yoki angioplastika)	11,3% (n=14)	13,8% (n=17)	p>0,05; OR=0,801 CI: [0,376–1,706]

Chekish	33,3% (n=41)	31,0% (n=38)	p>0,05; OR=1,118 CI: [0,655–1,911]
O‘tkazilgan COVID-19	18,6% (n=23)	16,2% (n=20)	p>0,05; OR=1,336 CI:[0,613–2,290]
EuroSCORE shkalasi bo‘yicha xavf bahosi	4,31±0,30	4,45±0,45	p>0,05

Yuqoridagi 1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, tekshirilgan bemorlar orasida eng ko‘p uchraydigan hamroh kasalliklar surunkali buyrak kasalligi va arterial gipertenziya bo‘ldi. Xususan, arterial gipertenziya PPT guruhi bemorlarining 66 tasida (53,6%), nazorat guruhidagi 70 nafar (56,9%) bemorda aniqlangan. Surunkali buyrak kasalligining turli darjalari esa PPT guruhidagi 98 nafar (79,7%) va nazorat guruhidagi 102 nafar (83,0%) bemorda tashxislangan. Postinfarkt kardioskleroz tadqiqot kohortasidagi 89 nafar (36,2%) bemorda kuzatildi, jumladan PPT guruhida 40 nafar (32,5%) va nazorat guruhida 49 nafar (39,8%) bemorda qayd etildi. Anamnezida o‘tkir miya qon aylanishi buzilishi (O‘MQAB) bo‘lgan bemorlar soni har ikki guruhda deyarli bir xil bo‘lib, PPT guruhida 21 nafar (17,0%), nazorat guruhida esa 23 nafar (18,7%) bemorni tashkil etdi. Tekshirilgan bemorlar orasida chekish kabi zararli odat 79 nafar (32,1%) bemorda aniqlangan. Koronavirus infeksiyasi (COVID-19) bilan avval kasallanganlar soni 43 nafarni (17,5%) tashkil etdi. Bundan tashqari, 31 nafar (12,6%) bemorda ilgari miokard revaskulyarizatsiyasi, ya’ni perkutan koronar aralashuv (PKA) yoki koronar arteriyalarni stentlash amaliyoti bajarilganligi qayd etildi. Mazkur prospektiv tadqiqotda bemorlarni guruhlarga taqsimlash ko‘r randomizatsiya usuli yordamida amalga oshirildi. Boshlang‘ich klinik va anamnestik ko‘rsatkichlar tahlili guruhlar o‘rtasida statistik jihatdan ishonchli farqlar mavjud emasligini ko‘rsatdi (p>0,05), bu esa ularning o‘zaro taqqoslanadiganligini tasdiqlaydi hamda posterior perikardiotomiyaning o‘rganilayotgan klinik natijalarga ta’sirini xolis baholash imkonini beradi.

Shundan so‘ng, ikkala guruh bemorlarining jarrohlik amaliyotigachan bo`lgan davrdagi Xolter EKG monitoringi natijalari qiyosiy tahlil qilindi.

2-jadval.

Bemorlarda Xolter EKG monitoringi natijalari.

Ko‘rsatkichlar	Asosiy guruh (PPT bilan),n=123	Nazorat guruhi (PPTsiz), n=123	Ishonchlilik p; OR (95% CI)
Yozuv davomiyligi, soat	24±1,2	24±1,5	ahamiyatli emas
Kunduzgi o‘rtacha YUQS, zarb/min	78±14,8	72,4±10,9	p=0,76
Tungi o‘rtacha YUQS, zarb/min	70,0±11,5	63,1±12,0	p=0,67
Qorincha ekstrasistoliyalari (QES)	60 (48,8%)	68 (55,3%)	OR=0,878 (95% CI: 0,532–1,448)
Umumiy soni	2380±509	2578±498	p=0,78
Yakka QES	59 (48,0%)	67 (55,0%)	OR=0,771 (95% CI: 0,467–1,272)
Juft QES	40 (32,5%)	43 (34,9%)	OR=0,897 (95% CI: 0,528–1,522)
Politop QES	14 (11,3%)	17 (13,8%)	OR=0,801 (95% CI: 0,376–1,706)

Guruhli QES	12 (9,75%)	14 (11,4%)	OR=0,842 (95% CI: 0,373–1,902)
Qorincha usti ekstrasistoliyalari (QUES)	43 (34,9%)	48 (39,0%)	OR=0,840 (95% CI: 0,500–1,410)
Umumiy soni	735±158	976±141	p=0,25
Yakka QUES	67 (54,4%)	59 (48,0%)	OR=1,298 (95% CI: 0,786–2,142)
Juft QUES	42 (34,1%)	47 (38,3%)	OR=0,838 (95% CI: 0,498–1,411)
Guruhli QUES	47 (38,3%)	41 (33,5%)	OR=1,237 (95% CI: 0,734–2,085)

Operatsiyadan oldin o‘tkazilgan Xolter EKG monitoringi natijalari (2-jadval) tahlili shuni ko‘rsatdiki, posterior perikardiotomiya (PPT) qo‘llanilgan va qo‘llanilmagan guruhlar o‘rtasida qorincha ekstrasistoliyasi (QES) uchrash chastotasi bo‘yicha statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi. QES PPT guruhidagi bemorlarning 48,8% ida, nazorat guruhidagi bemorlarning esa 55,3% ida qayd etildi. Shuningdek, sutkalik QES soni ham guruhlar o‘rtasida sezilarli farq qilmagan bo‘lib, PPT guruhida 2380±509 tani, nazorat guruhida esa 2578±498 tani tashkil etdi. Qayd etilgan qorincha ekstrasistoliyalari ko‘pincha murakkab shakllarda namoyon bo‘lgan. Jumladan, juft QESlar bemorlarning 33,7% ida, politop QESlar 13,0% ida kuzatilgan bo‘lsa, guruhli QESlar 21,15% hollarda aniqlangan. Qorincha usti ritm buzilishlari ham har ikkala guruhda uchragan. PPT guruhida ular bemorlarning 35% ida, nazorat guruhida esa 39% ida qayd etilgan. Ushbu aritmiyalarning asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha guruhlar o‘rtasida ishonchli farq kuzatilmadi. Xususan, qorincha usti ekstrasistoliyalarining (QUES) sutkalik umumiy soni PPT guruhida 735±158 tani, nazorat guruhida esa 976±141 tani tashkil etdi. Yakka QUESlar PPT guruhida 67 nafar (54,4%) bemorda, nazorat guruhida esa 59 nafar (48,0%) bemorda aniqlangan. Bundan tashqari, har ikkala guruhda juft va guruhli QUESlar ham qayd etilgan. PPT guruhida juft QUESlar 42 nafar (34,1%) va guruhli QUESlar 47 nafar (38,3%) bemorda uchragan bo‘lsa, nazorat guruhida mos ravishda 47 nafar (38,3%) va 41 nafar (33,5%) bemorda kuzatilgan. Ta’kidlash joizki, operatsiyadan oldingi davrda tadqiqotga kiritilgan bemorlarning hech birida bo‘lmachalar fibrillyatsiyasi qayd etilmadi. Aniqlangan barcha ritm buzilishlari ekstrasistolik aritmiyalar bilan cheklangan bo‘lib, tadqiqot guruhlari yurak ritmi holati bo‘yicha o‘zaro taqqoslanadigan darajada bir xil ekanligini ko‘rsatdi.

Tadqiqotga kiritilgan barcha bemorlarda operatsiyadan oldingi bosqichda yurakning struktur-funksional holatini baholash maqsadida kengaytirilgan exokardiografiya (ExoKG) amalga oshirildi.

3-jadval.

Bemorlarning operatsiyadan oldingi exokardiografik ko‘rsatkichlari.

Ko‘rsatkichlar	Asosiy guruh (PPT bilan), n=123	Nazorat guruhi (PPTsiz), n=123	Ishonchlilik p; OR (95% CI)
Chap qorinchaning oxirgi diastolik o‘lchami (ChQODO), mm	5,1 [3,9–7,2]	4,9 [3,5–6,9]	p=0,578
Chap qorinchaning oxirgi sistolik o‘lchami (ChQOSO), mm	3,86 [2,4–6,7]	3,77 [2,2–6,2]	p=0,609
Qorinchalararo to‘siq qalinligi, mm	11,3 [6–15,6]	11,9 [7–14,3]	p=0,097
Chap qorincha orqa devori qalinligi, mm	11,1 [8–13]	11,3 [7–12,1]	p=0,928

Oxirgi diastolik hajm (ODH), ml	118,7±17,7	123,4±13,1	p=0,413
Oxirgi sistolik hajm (OSH), ml	61,47±7,9	63,4±6,6	p=0,798
Zarba hajmi (ZH), ml	58,2±12,4	55,5±16,7	p=0,896
Chiqarish fraksiyasi (ChF), %	51,36±4,8	52,9±5,2	p=0,927
Chap bo‘lmacha o‘rtacha o‘lchami, mm	44,5±9,1	46,9±8,6	p=0,848
O‘ng bo‘lmacha o‘rtacha o‘lchami, mm	35,9 × 45	33,7 × 46,3	ahamiyatli emas
O‘ng qorincha o‘rtacha o‘lchami, sm	3,39±1,1	3,41±1,3	p=0,99
O‘pka arteriyasidagi sistolik bosim (OASB), mm sim.ust.	27,4±3,3	27,0±4,1	p=0,787
Aortal qopqoq			
Qopqoq varaqlaridagi fibroz o‘zgarishlar	17 (13,82%)	19 (15,44%)	OR=0,878 (95% CI: 0,432–1,782)
Teshik maydoni, sm²	3,04	3,10	ahamiyatli emas
Aortal regurgitatsiya 1-darjasi mavjud bemorlar soni	21 (17,0%)	19 (15,4%)	OR=1,127 (95% CI: 0,572–2,220)
Mitral qopqoq			
Qopqoq varaqlaridagi fibroz o‘zgarishlar	51 (41,4%)	56 (45,46%)	OR=0,847 (95% CI: 0,512–1,404)
Teshik maydoni, sm²	4,34	4,51	ahamiyatli emas
Mitral regurgitatsiyali bemorlar soni	48 (39,0%)	56 (45,4%)	OR=0,766 (95% CI: 0,461–1,271)
1-darajali regurgitatsiya	42 (86,8%)	46 (82,2%)	OR=0,868 (95% CI: 0,515–1,463)
2-darajali regurgitatsiya	6 (13,2%)	10 (17,8%)	OR=0,579 (95% CI: 0,204–1,647)
Qopqoq varaqlaridagi fibroz o‘zgarishlar	51 (41,4%)	56 (45,46%)	OR=0,847 (95% CI: 0,512–1,404)
Trikuspidal qopqoq			
Qopqoq varaqlaridagi fibroz o‘zgarishlar	14 (11,38%)	17 (13,8%)	OR=0,801 (95% CI: 0,376–1,706)
Trikuspidal regurgitatsiyali bemorlar soni 1-darajali regurgitatsiya	11 (8,94%)	15 (12,1%)	OR=0,707 (95% CI: 0,311–1,608)
Ko‘tariluvchi aorta			
Aorta ildizi diametri, sm	2,5±0,6	2,65±0,55	p=0,855
Valsalva sinuslari diametri, sm	3,18±0,53	3,25±0,48	p=0,922
Ko‘tariluvchi aorta diametri, sm	3,34±0,80	3,41±0,77	p=0,949

Tadqiqot guruhlari o‘rtasida exokardiografik ko‘rsatkichlar bo‘yicha sezilarli farqlar aniqlanmadi. Yurak bo‘shliqlarining o‘lchamlari va hajmlari, shuningdek chap qorinchaning sistolik funksiyasi baholanganda ikkala guruhda ham o‘xshash natijalar qayd etildi. Biroq ayrim exokardiografik parametrlar bo‘yicha kichik tafovutlar kuzatildi. Xususan, chap bo‘lmachaning anterolateral o‘lchami PPT qo‘llanilmagan guruhda 46,9±8,6 mm ni tashkil etib, PPT guruhi ko‘rsatkichidan (44,5±9,1 mm) biroz yuqori bo‘ldi. Shuningdek, tadqiqotga kiritilgan bemorlarda yurak qopqoqlari patologiyalari ham aniqlangan. Aortal qopqoq varaqlarida fibroz o‘zgarishlar 36 nafar (14,6%) bemorda, trikuspidal qopqoqda 31 nafar (12,6%) bemorda va mitral qopqoqda 107 nafar (43,4%) bemorda qayd etildi. Qopqoqlar funksional holatini baholash natijasida aortal regurgitatsiya 40 nafar (16,2%) bemorda aniqlangan bo‘lib, ulardan 37 nafarida I darajali yetishmovchilik kuzatildi. Bundan tashqari, 31 nafar (12,6%) bemorda trikuspidal qopqoqning I darajali yetishmovchiligi qayd etildi. Mitral qopqoq yetishmovchiligi 104 nafar (42,8%) bemorda aniqlangan. PPT guruhida I darajali mitral regurgitatsiya 42 nafar, II darajali mitral regurgitatsiya esa 6 nafar bemorda kuzatildi. PPT qo‘llanilmagan guruhda mitral regurgitatsiya holatlari soni ko‘proq bo‘lib, mos ravishda 56 ta holat qayd etildi, PPT guruhida esa bu ko‘rsatkich 48 tani tashkil etdi. Nazorat guruhida I darajali mitral regurgitatsiya 46 nafar, II darajali mitral regurgitatsiya esa 10 nafar bemorda aniqlangan. Yurakning boshqa struktur va funksional ko‘rsatkichlari bo‘yicha tadqiqot guruhlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar kuzatilmadi, bu esa guruhlarning operatsiyadan oldingi exokardiografik tavsiflari o‘zaro taqqoslanadigan darajada ekanligini ko‘rsatadi.



1.-rasm. Tadqiqotga kiritilgan bemorlarning chap bo‘lmacha indekslangan hajmi bo‘yicha taqsimlanishi.

O`rganilayotgan guruhlardagi bemorlarning chap bo`lmachaning indekslangan hajmi o`rganilganda solishtirilayotgan guruhlar o`rtasida statistic jihatdan sezilarli farq aniqlanmadi. Shuningdek, ikkala guruhda ham saqlangan chap bo`lmacha indekslangan hajmli bemorlar soni ko`p ekanligi tasdiqlandi (1-rasm).

Shuningdek, bemorlar koronar arteriyalarning shikastlanish darajasi bo‘yicha ham baholandi. PPT guruhida bir tomirli shikastlanish 4 nafar bemorda, PPTsiz guruhda esa 6 nafar bemorda qayd etildi. Ikki tomirli shikastlanish PPT guruhida 14 nafar bemorda, PPTsiz guruhda esa 12 nafar bemorda aniqlandi. Har ikkala guruhda ham koronar arteriyalarning uch tomirli va ko‘p tomirli shikastlanishi ustunlik qildi: PPT guruhida 87 nafar bemorda, PPTsiz guruhida esa 83 nafar bemorda (3-rasm). Solishtiralayotgan guruhlar o`rtasida statistic analiz o`tkazilganda guruhlar o`rtasida sezilarli farq aniqlanmadi.



2-rasm. Bemorlarning zararlangan koronar arteriyalar soniga ko‘ra taqsimlanishi.

Bizning tadqiqotimizda barcha bemorlarga qonning laborator-biokimyoviy tekshiruvlari o‘tkazildi. Bemorlarning operatsiyagacha va operatsiyadan keyingi davrlardagi asosiy qon ko‘rsatkichlari o‘rganildi.

4-jadval.

Asosiy operatsiyagacha bo‘lgan laborator-biokimyoviy ko‘rsatkichlar

Laborator-biokimyoviy ko‘rsatkich	Asosiy guruh, n = 123	Nazorat guruhi, n = 123	Ishonchlilik (p; OR (95% CI))
Gemoglobin (g/l), o‘rtacha±standart og‘ish	122,8±16,1	125,3±14,8	p = 0,90
Gematokrit (%), o‘rtacha±standart og‘ish	37,03±4,79	36,3±5,1	p = 0,91
SOE (mm/soat), o‘rtacha±standart og‘ish	16,9±13,8	17,1±12,4	p = 0,91
Glyukoza (mkmol/l), o‘rtacha±standart og‘ish	7,15±2,95	6,95±3,07	p = 0,96
Mochevina (mmol/l), o‘rtacha±standart og‘ish	7,43±2,09	7,56±2,12	p = 0,96
Kreatinin (mkmol/l), o‘rtacha±standart og‘ish	98±22,2	99±19,8	p = 0,97
ALT, o‘rtacha±standart og‘ish	27,03±19,7	26,8±18,9	p = 0,99
AST, o‘rtacha±standart og‘ish	21,62±11,9	22,03±12,3	p = 0,97
NT-proBNP (pg/ml), o‘rtacha±standart og‘ish	945±325	1020±364	p = 0,87

Umumiy xolesterin (mg/dl) – norma < 180 mg/dl	181±59,4	177±52,5	p>0.05
Trigliseridlar (mg/dl) – norma < 200 mg/dl	213±149,5	225±155,3	p>0.05
HDL xolesterin (mg/dl) – norma > 40 mg/dl	39,4±44,5	37,6±48,3	p>0.05
VLDL xolesterin (mg/dl) – norma < 40 mg/dl	44,5±25,7	48,3±23,3	p>0.05
LDL xolesterin (mg/dl) – norma < 100 mg/dl	101,9±43,4	112,3±48,3	p>0.05
Aterogenlik koeffitsienti (AK) – norma 2,2–3,5	3,97±2,05	4,12±2,18	p>0.05

Laborator-biokimyoviy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, o‘rganilgan guruhlarda qon ko‘rsatkichlari bo‘yicha sezilarli farqlar kuzatilmadi. Biroq PPT guruhida NT-proBNP ko‘rsatkichi 945±325 pg/ml ni tashkil etdi, PPTsiz guruhda esa bu ko‘rsatkich biroz yuqoriroq bo‘lib, 1020±364 pg/ml ga teng bo‘ldi (p = 0,87). O‘rganilayotgan bemorlarning lipid profili tahlil qilinganda, qon tahlili natijalarida guruhlar o‘rtasida o‘xshashlik aniqlandi. PPTsiz guruh bemorlarida trigliseridlar va aterogenlik koeffitsienti (AK) ko‘rsatkichlari PPT guruhiga nisbatan biroz yuqoriroq bo‘ldi, biroq bu farqlar statistik jihatdan ishonchli darajaga yetmadi.

Shuningdek, o‘rganilayotgan guruhlar o‘rtasida perioperatsion ko‘rsatkichlar taqqoslandi. Barcha bemorlarga ishlayotgan yurak sharoitida aortokoronar shuntlash operatsiyasi bajarildi. Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, ayrim ko‘rsatkichlarda statistik jihatdan ahamiyatsiz farqlar qayd etilgan bo‘lsa-da, asosiy intraoperatsion parametrlar ikkala guruhda ham o‘xshash bo‘ldi. Operatsiya davomiyligi va sun’iy o‘pka ventilyatsiyasi davomiyligi bo‘yicha guruhlar o‘rtasida farq aniqlanmadi (5-jadval).

5-jadval.

O‘rganilayotgan guruhlarda operatsion davr kechishi

Ko‘rsatkich	Asosiy guruh (n=123)	Nazorat guruhi (n=123)	Ishonchlilik (p; OR (95% IS))
Operatsiya davomiyligi, daqiqa	215,9±25,2	209,4±27,5	Ahamiyatli emas
Intubatsiya davomiyligi, daqiqa	220,0±30,6	217,2±28,1	p>0,05
Qon yo‘qotish hajmi, ml	381,9±19,6	392,8±23,4	p>0,05
Shuntlar soni (o‘rtacha)	3,2 [1–5]	3,3 [1–5]	p>0,05
Sun’iy qon aylanishiga o‘tkazish (konversiya)	0	0	p>0,05
Mexanik qon aylanishini qo‘llab-quvvatlash tizimiga ulash (EKMO yoki VABK)	0	0	p>0,05

O‘rganilayotgan guruhlarda o‘rtacha qo‘yilgan shuntlar soni o‘xshash bo‘lgan. Shuni ta’kidlash lozimki, hech bir holatda sun’iy qon aylanish o‘tish amalga oshirilmagan — barcha bemorlarda operatsiyalari ishlayotgan yurak (off-pump) sharoitida bajarilgan. Intra- va operatsiyadan keyingi davrda bemorlar yurakni qo‘shimcha mexanik qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bo‘lmagan .

6-jadval.

Reanimatsiya va intensiv terapiya bo‘limida erta operatsiyadan keyingi davr ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Asosiy guruh, n = 123	Nazorat guruhi, n = 123	Ishonchlilik (p; OR (95% CI))

Ventilyatsiya davomiyligi, daqiqa	264,6±78,6	298±68,6	0,749
Drenajlar bo‘yicha qon yo‘qotish, ml	690±333	736±469	0,936
Inotrop qo‘llab-quvvatlash davomiyligi, soat	27,6±7,6	31,7±8,5	0,719
Reanimatsiya bo‘limida qolish davomiyligi, soat	54,7±13,2	60,4±11,0	0,740
Ko‘rsatmalar bo‘yicha qayta operatsiya (qon ketish, o‘tkir transplantat trombozi)	0.81%(n=1)	3.25%(n=4)	OR = 0,244 [0,027–2,214]
Erta operatsiyadan keyingi insult	0.81%(n=1)	2.43%(n=3)	OR = 0,328 [0,034–3,197]
Shifoxona ichidagi o‘lim	0	0	ahamiyatli emas
Operatsiyadan keyingi reabilitatsiya davri, kun	8,13±1,55	12,7±1,65	0,044
Umumiy shifoxona davri, kun	9,35±1,45	13,6±1,7	0,045

Asosiy farqlar o‘rganilgan guruhlar o‘rtasida operatsiyadan keyingi ko‘rsatkichlar bo‘yicha kuzatildi: o‘pkaning sun’iy ventilyatsiyasi davomiyligi, inotrop qo‘llab-quvvatlash muddati, reanimatsiya bo‘limida bo‘lish vaqti hamda umumiy shifoxonada yotish davomiyligi. PPT guruhida sun’iy o‘pka ventilyatsiyasi davomiyligi 264,6±78,6 daqiqa bo‘lib, PPTsiz guruhda bu ko‘rsatkich biroz yuqoriroq — 298±68,6 daqiqani tashkil etdi. Yurakning inotrop qo‘llab-quvvatlash davomiyligi PPT guruhida qisqaroq (27,6±7,6 soat) bo‘lib, PPTsiz guruhda esa 31,7±8,5 soatni tashkil etdi. Shuningdek, PPTsiz guruh bemorlari reanimatsiya bo‘limida uzoqroq vaqt qolishgan: PPT guruhida 54,7±13,2 soat, nazorat guruhida esa 60,4±11,0 soat. Qayta operatsiya (qon ketish, yurak tamponadasi) PPT guruhida 1 holatda, PPTsiz guruhda esa 4 holatda qayd etildi (OR = 0,244 [0,027–2,214]). Erta operatsiyadan keyingi ishemik insult PPT guruhida 1 bemorda, PPTsiz guruhda esa 3 bemorda kuzatildi (OR = 0,328 [0,034–3,197]), biroq bu farqlar statistik jihatdan ahamiyatli emas edi. Shuningdek, guruhlar operatsiyadan keyingi reabilitatsiya davri va shifoxonada yotish muddatlari bo‘yicha ham farq qildi. PPT guruhida reabilitatsiya davomiyligi 8,13±1,55 kun, PPTsiz guruhda esa 12,7±1,65 kunni tashkil etdi. Umumiy shifoxona davri ham PPT guruhida qisqaroq bo‘lib, 9,35±1,45 kun, nazorat guruhida esa 13,6±1,7 kunni tashkil etdi.

7- jadval.

Erta operatsiyadan keyingi davrda elektrolit muvozanatining baholanishi

Ko‘rsatkichlar	Asosiy guruh, n = 123	Nazorat guruhi, n = 123	Ishonchlilik (p; OR (95% CI))
K^+; mmol/L	3,8±0,3	3,65±0,72	ahamiyatli emas
Na^+; mmol/L	138,9±4,31	139,4±3,23	ahamiyatli emas

Erta operatsiyadan keyingi davrda muhim tekshiruvlardan biri qonning kislota-ishqor holati tahlilidir. Bizning protokolga ko‘ra, kislota-ishqor holati uchun qon namunasi har 6 soatda olinishi belgilangan edi. Uning asosida ikkala guruhda ham elektrolitlar muvozanati baholandi, chunki ma’lumki, elektrolitlar buzilishi POBF rivojlanishining muhim prediktorlaridan biri hisoblanadi (7-jadval).

Operatsiyadan keyingi davrda reanimatsiya bo‘limida yurak ritmi doimiy ravishda yonbosh (bedside) monitorlar yordamida kuzatib borildi. Barcha bemorlar reanimatsiya bo‘limidan keyingi

davolanish va reabilitatsiya uchun umumiy bo‘limga o‘tkazilgach, ritm buzilishlarini aniqlash maqsadida 5 kun davomida Xolter EKG (XM EKG) instrumental tekshiruvdan o‘tkazildi (8-jadval).

Ko‘rsatkichlar	Asosiy guruh (PPT bilan, n=123)	Nazorat guruhi (PPTsiz, n=123)	Ishonchlilik: p; OR (95% CI)
Yozuv davomiyligi, soat	32,4 ± 5,6	35,3 ± 7,6	Ishonchli emas
O‘rtacha YUQS (yurak urish tezligi), urish/min	82 ± 11,8	89,4 ± 13,9	Ishonchli emas
Maks./min. YUQS	118 ± 30,4 / 68,67	121,3 ± 35,8 / 71,3	Ishonchli emas
Asosiy ritm – sinus ritmi	87% (n=107)	69% (n=85)	p < 0,05
Bo‘lmacha fibrillyatsiyasi	13% (n=16)	31% (n=38)	p < 0,05
Qorincha ekstrasistoliyalari (VES) umumiy soni	570 ± 146	613 ± 153	p = 0,839
Yakka VES	497,4 ± 144,76	515,6 ± 128,9	p = 0,880
Juft VES	35,08 ± 14,64	42,5 ± 18,32	p = 0,751
Bigeminiya/trigeminiya	13,36 ± 5,16	15,32 ± 7,25	p = 0,825
Guruhli VES	35,3 ± 4,8	36,3 ± 7,8	p = 0,913
Supraventrikulyar ekstrasistoliyalar (SVES) umumiy soni	299,9 ± 192,6	321 ± 185,4	p = 0,937
Qorincha taxikardiyasi / SVT epizodlari	2 / 1	3 / 1	OR = 0,947 (0,496–1,808); OR = 0,909 (0,497–1,664)
Yakka SVES	266 ± 182,5	315 ± 145,2	p = 0,833

Xolter EKG yozuvining o‘rtacha davomiyligi 35 soatdan ortiqni tashkil etdi. Xolter EKG ma’lumotlariga ko‘ra, o‘rganilgan guruhlarda bo‘lmachalar fibrillyatsiyasining 54 ta (22%) holati aniqlangan. PPT bilan guruhda ular 16 ta (13%) ni tashkil etgan bo‘lsa, PPTsiz guruhda ancha ko‘proq — 38 ta (31%) holat kuzatilgan (OR = 0,334 [0,175–0,641]). Shuningdek, o‘rganilgan guruhlar Xolter EKGning ayrim ko‘rsatkichlari bo‘yicha, jumladan o‘rtacha va maksimal/minimal yurak urish tezligi bo‘yicha o‘zaro taqqoslanadigan bo‘lgan. Biroq guruhlar qorincha ekstrasistoliyalari (VES) va supraventrikulyar ekstrasistoliyalar (SVES) umumiy soni bo‘yicha farqlangan. PPT bilan guruhda VES/SVES umumiy soni mos ravishda 570±146 va 299,9±192,6 ni tashkil etgan bo‘lsa, PPTsiz guruhda bu ko‘rsatkichlar yuqoriroq bo‘lgan — 613±153 va 321±185,4. Shuningdek, PPTsiz guruhda guruhli VES ko‘proq uchragan (12,5±6,8) bo‘lib, PPT bilan guruhga nisbatan (5,4±2,4) yuqoriroq ko‘rsatkichni tashkil etgan. POFB (postoperatsion bo‘lmachalar fibrillyatsiyasi) rivojlanganda bemorlarga klinik va gemodinamik holatiga qarab medikamentoz yoki elektr kardioversiya tayinlangan. Ayrim holatlarda bemorlar rejalashtirilgan elektr kardioversiya o‘tkazish uchun reanimatsiya bo‘limiga yuborilgan (3-rasm).



3-rasm. Bemorlarda POBFni davolash usullari.

Yuqoridagi suratda ko`rinib turibdiki POBF rivojlangan bemorlarning yarimiga sinusli ritm dori vositalari yordamida tiklandi, lekin 40.7% bemorlarda o`tkazilgan medikamentoz davoga qaramasdan sinusli ritmni tiklashni udassidan chiqa olmadik va elektr kardioversiya qo`lladik. Bemorlarning ko`pchiligida, yani 65% da gemodinamik beqarorlik yuzaga keldi shu sababli ularni stabillashtirish maqsadida reanimatsiya va intensiv davolash bo`limiga o`tkazilgan.

8-jadval.

Nazorat ExoKG (ExoKG) ma’lumotlari

Ko‘rsatkichlar	Asosiy guruh (PPT bilan), n = 123	Nazorat guruhi (PPTsiz), n = 123	Ishonchlilik (p; OR (95% CI))
KDR, mm	4,9 ± 0,05	4,85 ± 0,05	p > 0,05
KSR, mm	3,71 ± 0,06	3,67 ± 0,06	p > 0,05
KDO, ml	109,4 ± 3,32	112,9 ± 3,45	p > 0,05
KSO, ml	58,09 ± 3,67	61,1 ± 2,26	p > 0,05
UO, ml	53,79 ± 1,14	54,29 ± 1,13	p > 0,05
FV, %	49,6 ± 3,48	50,63 ± 2,85	0,819
Chap bo‘lmacha o‘lchami (o‘rtacha), mm	43,5 ± 5,1	45,3 ± 6,1	p >0,05
SDLA, o‘rtacha, mm sim. ust.	26,8 ± 3,2	26,7 ± 3,6	p = 0,976

Operatsiyadan oldingi va keyingi davrda ExoKG natijalariga ko‘ra statistik jihatdan ahamiyatli o‘zgarishlar aniqlanmadi. Chap qorinchaning qisqarish funksiyasi ikkala guruhda ham o‘xshash bo‘lib, bir xil darajada saqlangan.

9-jadval.

Gospital davrining bevosita natijalari

Ko‘rsatkichlar	Asosiy guruh (PPT bilan), n = 123	Nazorat guruhi (PPTsiz), n = 123	Ishonchlilik: p; OR (95% CI)
XM EKG bo‘yicha bo‘lmachalar fibrillyatsiyasi aniqlanishi	13% (n=16)	31% (n=38)	p < 0,05
O`MQAB	0,81% (n=1)	2,43% (n=3)	p > 0,05
Qayta operatsiya (qon ketish, yurak tamponadasi)	0,81% (n=1)	3,25% (n=4)	p > 0,05
Operatsiyadan keyingi reabilitatsiya davri, kun	8,13 ± 1,55	12,7 ± 1,65	p = 0,042
Gospital davri davomiyligi, kun	9,35 ± 1,45	13,6 ± 1,7	p = 0,045

Umumiy tahlil qilinganda o`rganilayotgan guruhlarning shifoxonadagi davri sinchiklab tahlil qilinganda quyidagicha ishonarli va ishonarsiz farqlar yuzaga keldi: o`tkir miya qon aylanishining buzilish holatlari asosiy guruhda 1 ta bemorda, nazoratdagi guruhda esa 3 ta bemorda qayd etilgan. Shuningdek, qayta jarrohlik amaliyotiga olish qon ketish yoki yurak tamponadasi tufayli asosiy guruhda 1 ta nazoratdagi guruhda 4 ta bemorda yuzaga kelgan, lekin bu ko`rsatkichlar statistik jihatdan ishonarli emas edi. Solishtirilayotgan guruhlar o`rtasida statistic jihatdan ishonarli farq postoperatsion bo`lmachalar fibrillyatsiyasining yuzaga kelishi bo`yicha kuzatilgan asosiy guruhda 13% nazoratdagi guruhda 2.4 barovar ko`p yani 31%. Qolaversa reabilitatsiya va umumiy gospitilizatsiya davrlari bo`yicha ham guruhlar o`rtasida ishonarli farq yuzaga kelgan: asosiy guruhda reabilitatsiya davri 8,13 ± 1,55 kun va shifoxona davri 9,35 ± 1,45 kunni tashkil etgan bo`lsa, nazoratdagi guruhda reabilitatsiya va shifoxona davri birmuncha davomiyroqligini ko`rishimiz mumkun 12,7 ± 1,65 kun; 13,6 ± 1,7 kun.

Tadqiqotning keyingi bosqichida POBFning mustaqil prediktorlarini aniqlash maqsadida jarrohlik amaliyotidan keyingi davrda o`tkazilgan XMEKG natijalariga asoslangan xolda o`rganilayotgan bemorlar ikki guruhga ajratildi: birinchi guruh postoperatsion bo`lmachalar rivojlangan 54 ta bemorni o`z ichiga olgan bo`lsa ikkinchi guruh postoperatsion bo`lmachalar rivojlanmagan 192 bemorni o`z ichiga olgan.

10-jadval.

Postoperatsion bo‘lmachalar fibrillyatsiyasi kuzatilgan va kuzatilmagan bemorlarning operatsiyagacha bo‘lgan demografik tavsifi.

Ko‘rsatkichlar	POBF guruhi (n=54)	POBF kuzatilmagan guruh (n=192)	OR; 95% IC; p; X^2
O‘rtacha yosh	63,1±4,6	54,5±3,4	p=0,13
Erkaklar	38 (70,3%)	153 (79,6%)	p>0,05
Ayollar	16 (29,7%)	39 (20,3%)	
Arterial gipertenziya (AG)	51 (95,1%)	85 (44,3%)	OR=21,4 (95% IC: 6,4–70,9); p<0,001
Postinfarkt kardiosklerozi (PIKS)	25 (46,3%)	64 (33,5%)	OR=1,72 (95% IC: 0,93–3,18); p>0,05
Semizlik	27 (50,0%)	55 (28,7%)	OR=2,49 (95% IC: 1,34–4,62); p=0,008
Qandli diabet (QD)	35 (68,5%)	58 (30,5%)	OR=4,25 (95% IC: 2,24–8,05); p<0,001
Surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi (SO‘OK)	31 (57,4%)	73 (38,1%)	OR=2,86 (95% IC: 1,48–5,16); p=0,01

Surunkali buyrak kasalligi (SBK)	42 (78,0%)	158 (82,6%)	OR=0,75 (95% IC: 0,35–1,58); p>0,05
SBK 2-bosqich	22 (52,4%)	109 (69,0%)	OR=0,52 (95% IC: 0,28–0,96); p=0,09
SBK 3a-bosqich	12 (28,5%)	39 (24,6%)	OR=1,12 (95% IC: 0,53–2,33); p=0,68
SBK 3b-bosqich	8 (19,0%)	10 (6,4%)	OR=0,50 (95% IC: 1,18–8,47); p=0,04
O‘tkazilgan COVID-19	37 (68,5%)	70 (36,5%)	OR=3,79 (95% IC: 1,99–7,23); p<0,001
O‘tkazilgan o‘tkir bosh miya qon aylanishi buzilishi (O‘BMQAB)	12 (22,0%)	31 (16,1%)	OR=1,48 (95% IC: 0,70–3,13); p>0,05
Teri orqali koronar aralashuv anamnezda (stentlash yoki angioplastika)	9 (17,0%)	22 (11,4%)	OR=1,54 (95% IC: 0,66–3,58); p=0,34
EuroSCORE bo‘yicha baholash	4,1±1,7	3,8±2,0	Farq aniqlanmadi
Bir tomirli zararlanish	4 (7,4%)	6 (3,1%)	p=0,11
Ko‘p tomirli zararlanish	50 (92,5%)	186 (96,9%)	p=0,16
Oldingi pastga tushuvchi arteriya (LAD) shuntlangan	54 (100%)	192 (100%)	Farq aniqlanmadi
Chap ichki ko‘krak arteriyasi (LIMA) ishlatilgan	45 (83,3%)	186 (96,8%)	Farq aniqlanmadi
O‘ng ichki ko‘krak arteriyasi (RIMA) ishlatilgan	0 (0%)	2 (1,0%)	Farq aniqlanmadi
To‘liq revaskulyarizatsiya	52 (96,0%)	187 (97,4%)	χ^2=1,9; p=0,18
PPT bajarilgan	16 (29,6%)	107 (55,7%)	OR=0,33 (95% IC: 0,17–0,64); p=0,039
Shifoxonada davolanish davomiyligi, kun	14,5±2,1	8,35±2,0	0,044
Operatsiyadan keyingi reabilitatsiya davri, kun	10,13±2,88	7,4±1,85	0,425

Klinik va anamnestik ko‘rsatkichlar tahlili quyidagilarni ko‘rsatdi: o‘rganilgan guruhlar yosh va jins ko‘rsatkichlari bo‘yicha bir-biridan statistik jihatdan sezilarli farq qilmagan (10-jadval). Postoperatsion bo‘lmachalar fibrillyatsiyasi (POBF) kuzatilgan va kuzatilmagan bemorlar guruhlari taqqoslanganda, POBF rivojlanishi arterial gipertenziya (AG) bilan chambarchas bog‘liqligi aniqlandi. Xususan, arterial gipertenziya POBF rivojlangan bemorlarda POBF kuzatilmagan guruhga nisbatan sezilarli darajada ko‘proq uchradi — mos ravishda 95,1% va 44,3% (OR=21,4; 95% IC: 6,4–70,9; p<0,001). Shuningdek, POBF rivojlangan bemorlar orasida semizlik nazorat guruhiga qaraganda ishonchli ravishda ko‘proq qayd etildi (OR=2,49; 95% IS: 1,34–4,62; p<0,001). Qandli diabet ham POBF rivojlangan bemorlarda sezilarli darajada ko‘proq uchradi — 68,5% ga nisbatan 30,5% (OR=4,25; 95% IC: 2,24–8,05; p<0,001). Yondosh kasalliklar orasida surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi (SO‘OK) ham POBF rivojlanishiga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri bo‘ldi.

SO‘OK POBF kuzatilmagan guruhdagi bemorlarning 38,1%ida, POBF rivojlangan guruhda esa 57,4%ida aniqlandi (OR=2,86; 95% IC: 1,48–5,16; p=0,01). Surunkali buyrak kasalligi (SBK) bilan POBF rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinganda, POBF rivojlangan bemorlar orasida SBKning 3b bosqichi sezilarli darajada ko‘proq uchrashi aniqlandi — mos ravishda 19,0% va 6,4% (OR=0,50; 95% IC: 1,18–8,47; p=0,04). Tadqiqot ishtirokchilarining ko‘pchiligi avval COVID-19 infeksiyasini boshdan kechirganligi sababli, ushbu omilning taqqoslanayotgan guruhlarda uchrash chastotasi ham baholandi. Tahlil natijasida o‘tkazilgan COVID-19 infeksiyasi bilan postoperatsion bo‘lmachalar fibrillyatsiyasi rivojlanishi o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi(OR=3,79 (95% IC: 1,99–7,23); p<0,001). Bundan tashqari POBF rivojlangan bemorlarning jarrohlik amaliyotidan keyingi vva umumiy shifoxonada davolanish davri POBF rivojlanmagan bemorlarga qaraganda uzoqroq davom etganligini kuzatishimiz mumkun.

Munozara

Tadqiqot natijalariga ko`ra posterior perikardiotomiyaning (PPT) profilaktik ahamiyati shundan iborat: PPT bajarilgan bemorlarda operatsiyadan keyingi bo‘lmachalar fibrillyatsiyasi 13% hollarda kuzatilgan bo‘lsa, nazorat guruhida ushbu ko‘rsatkich 31% ni tashkil etdi (OR=0,334; 95% CI 0,175–0,641; p=0,005).

Olingan natijalar xorijiy mualliflar tomonidan e’lon qilingan ma’lumotlar bilan mos keladi. Shuningdek, tadqiqotimiz natijalari posterior perikardiotomiyaning qo‘llanilishi bemorlarning shifoxonada davolanish va reabilitatsiya davrlarini qisqartirishini ko‘rsatdi. Bu o`z navbatida bemorlarning va shifoxonaning moliyaviy resurslarini tezlishiga olib keladi. Tadqiqotimizning ikkinchi bosqichida bemorlarda POBFning rivojlanishining mustaqil prediktorlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy ishimiz natijalari boshqa yirik chet el klinikalarida o`tkazilgan tadqiqot natijalarga mos ekanligini tasdiqlashimiz mumkun. Bizning tadqiqotimizda postoperatsion bo‘lmachalar fibrillyatsiyasi (POBF) rivojlangan bemorlar guruhida arterial gipertenziya (AG) va qandli diabet (QD) kabi yondosh kasalliklar POBF rivojlanmagan bemorlarga nisbatan sezilarli darajada ko‘proq uchrashi aniqlandi. Olingan natijalar xorijiy tadqiqotchilar ma’lumotlari bilan mos keladi [13].

Xulosa

Olingan natijalarga ko‘ra, posterior perikardiotomiya (PPT) ishlab turgan yurakda aortokoronar shuntlash (AKSH off-pump) amaliyotini o‘tkazgan bemorlarda postoperatsion bo‘lmachalar fibrillyatsiyasi (POBF) rivojlanish chastotasini sezilarli darajada kamaytiradi. Bundan tashqari, ushbu usul reabilitatsiya bo‘limida davolanish muddatini qisqartiradi, bu esa shifoxona resurslaridan yanada samarali foydalanish imkonini beradi hamda davolashning klinik va iqtisodiy samaradorligini oshiradi va POBF ning rivojlanishiga sabab bo`luvchi quyidagi mustaqil omillar aniqlandi: anamnezda arterial gipertenziyaning mavjudligi, surunkali buyrak kasalligining 3B bosqichi, qandli diabet, surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi, anamnezda o‘tkazilgan COVID-19 infeksiyasining mavjudligi, semizlik hamda chap bo‘lmachaning indekslangan hajmi kattalashganligi.

IQTIBOSLAR | СНОСКИ | REFERENCES:

1. Sousa-Uva M, Neumann FJ, Ahlsson A, Alfonso F, Banning AP, Benedetto U, et al. 2018 ESC/EACTS Guidelines on myocardial revascularization. Eur J Cardiothorac Surg. 2019;55(1):4–90.
2. Greenberg JW, Lancaster TS, Schuessler RB, Melby SJ. Postoperative atrial fibrillation following cardiac surgery: a persistent complication. Eur J Cardiothorac Surg. 2017;52(4):665–672.
3. Filardo G, Damiano RJ Jr, Ailawadi G, Thourani VH, Pollock BD, Sass DM, et al. Epidemiology of new-onset atrial fibrillation following coronary artery bypass graft surgery. Heart. 2018;104(12):985–992.
4. Mujović N, Marinković M, Marković N, et al. Postoperative atrial fibrillation after cardiac surgery: challenges throughout the patient journey. J Clin Med. 2022;11(1):58.
5. Goette A, Kalman JM, Aguinaga L, et al. EHRA/HRS/APHRS/SOLAECE expert consensus on atrial cardiomyopathies. Europace. 2016;18(10):1455–1490.

6. Mathew JP, Fontes ML, Tudor IC, et al. A multicenter risk index for atrial fibrillation after cardiac surgery. JAMA. 2004;291(14):1720–1729.
7. Echahidi N, Pibarot P, O'Hara G, Mathieu P. Mechanisms, prevention and treatment of atrial fibrillation after cardiac surgery. J Am Coll Cardiol. 2008;51(8):793–801.
8. Benedetto U, Gaudino MF, Dimagli A, et al. Postoperative atrial fibrillation and long-term risk of stroke after isolated coronary artery bypass graft surgery. Circulation. 2020;142(14):1320–1329.
9. Taha A, Nielsen SJ, Bergfeldt L, et al. New-onset atrial fibrillation after coronary artery bypass grafting and long-term outcome. J Am Heart Assoc. 2021;10(1):e017966.
10. Mulay A, Kirk AJB, Angelini GD, Wisheart JD, Hutter JA. Posterior pericardiotomy and cardiac tamponade after coronary artery surgery. Eur J Cardiothorac Surg. 1995;9(11):634–635.
87. Gaudino M, Sanna T, Ballman KV, et al. Posterior left pericardiotomy for the prevention of atrial fibrillation after cardiac surgery: the PALACS randomized clinical trial. Lancet. 2021;398(10316):2075–2083.
88. Rizaev J. A., Ashirov Z. F., Toshev S. U., Islamov N. H., Salamova L. A. [et al.]. Medical and organizational measures to improve the provision of medical care in the dermatovenerology profile // International Journal of Current Research and Review. – 2020. – Vol. 12, No. 24. – P. 120–122.
11. Ризаев Ж. А., Адилова Ш. Т., Пулатов О. А. Обоснование комплексной программы лечебно-профилактической стоматологической помощи населению Республики Узбекистан // Аспирант и соискатель. – 2009. – С. 73–74.
12. Alimdjanovich J. R., Ibragimovich A. K. Organization of monitoring of the quality of services provided for the prevention and fight against postpartum bleeding in women // Central Asian Journal of Medical and Natural Sciences. – 2021. – Vol. 2, No. 6. – P. 14–21.
13. Alimjanovich J. R., Agababyan L. R., Kamalov A. I. Prevention and treatment of postpartum hemorrhage // Central Asian Journal of Medical and Natural Sciences. – 2021. – Vol. 2, No. 4. – P. 204–209.
14. Biancari F, Mahar MAA, et al. Meta-analysis of randomized trials on posterior pericardiotomy for prevention of atrial fibrillation after cardiac surgery. J Cardiothorac Vasc Anesth. 2022;36(2):589–596.
15. Zimmer J, Pezzullo J, Choucair W, Southard J, Kokkinos P, Karasik P, Greenberg MD, Singh SN. Meta-analysis of antiarrhythmic therapy in the prevention of postoperative atrial fibrillation and the effect on hospital length of stay, costs, cerebrovascular accidents, and mortality in patients undergoing cardiac surgery. Am J Cardiol. 2003 May 1;91(9):1137-40. doi: 10.1016/s0002-9149(03)00168-1.

ISSN 2181-9300

DOI Journal 10.26739/2181-9300

БИОМЕДИЦИНА ВА АМАЛИЁТ ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ БИОМЕДИЦИНЫ И ПРАКТИКИ
JOURNAL OF BIOMEDICINE AND PRACTICE

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000